

EKSPORTNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIR QILISH XUSUSIYATLARI

Characteristics of the Impact of Exports on the National Economy

Особенности влияния экспорта на национальную экономику

Oriental universiteti

Iqtisodiyot mutaxassisligi

magistratura bosqichi 2-kurs talabasi

Sodiq Muhammad Fazlulloh Zokir o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada eksport faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta'siri, uning iqtisodiy o'sish, bandlik, valyuta tushumlari va texnologik rivojlanishdagi o'rni tahlil qilindi. Shuningdek, eksport siyosatini samarali tashkil etishning muhim tamoyillari va muammoli jihatlari tahlil qilib chiqildi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, eksport, import, eksport salohiyati, tashqi savdo, valyuta tushumi, sanoat, raqobatbardoshlik, bandlik, iqtisodiy o'sish.

Oriental University

Master's Degree Program in Economics

2nd-year graduate student

Sodiq Muhammad Fazlulloh Zokir ogli

Annotation: This article analyzes the impact of export activities on the national economy, focusing on its role in economic growth, employment, foreign currency earnings, and technological development. It also examines the key principles and problematic aspects of effectively organizing export policy.

Keywords: national economy, export, import, export potential, foreign trade, foreign currency earnings, industry, competitiveness, employment, economic growth.

Oriental universitet
Магистратура по специальности "Экономика"
Студент 2-го курса магистратуры
Содик Мухаммад Фазлулло Зокир угли

Аннотация: В данной статье проанализировано влияние экспортной деятельности на национальную экономику, её роль в экономическом росте, занятости, поступлении иностранной валюты и технологическом развитии. Также рассмотрены важнейшие принципы и проблемные аспекты эффективной организации экспортной политики.

Ключевые слова: национальная экономика, экспорт, импорт, экспортный потенциал, внешняя торговля, валютные поступления, промышленность, конкурентоспособность, занятость, экономический рост.

Eksport bu tashqi savdoning bir yo'nalishi bo'lib, muayyan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning tashqi bozorlarga sotish uchun chiqarilishi hisoblanadi va u milliy iqtisodiyot rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotlarda eksport orqali xorijiy valyuta tushumlari ko'payadi, ishlab chiqarish hajmi kengayadi, bandlik darajasi ortadi hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb etish imkoniyati ta'minlanadi.

Iqtisodiyotimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va siyosiy o'zgarishlar, ulkan yangiliklar va jarayonlar globallashuv avj olib borayotgan davrda taraqqiyot tendensiyasining mohiyatini ko'rsatib beradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi to'g'risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmonining "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" yo'nalishi 55-maqsadida "Milliy iqtisodiyotning eksport

salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish" vazifasi¹ ushbu vaziyatni aniq namoyon qiladi.

Milliy eksportning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'ziga xos bo'lib, eksport faoliyati iqtisodiy o'sishning kuchli drayverlaridan biri hisoblanadi. Chunki, eksport orqali ishlab chiqarish hajmining ortishi ta'minlanadi va xorijiy mamlakatlardagi talablar mahalliy korxonalarni faoliyatini rag'batlantiradi. Shuningdek, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratiladi va bandlik darajasi ortadi. Bundan tashqari, eksportdan tushgan daromadlar ishchilar va korxonaning davlat budjetiga soliqlar to'lashiga zamin hozirlaydi.

Ayni paytda, tashqi savdo, xususan, eksport mamlakatga valyuta tushumlariga va to'lov balansi muvozanatlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, eksport orqali mamlakatga xorijiy valyuta kirib kelishi bu to'g'ridan-to'g'ri to'lov balansini muvozanatlashtirishda, milliy valyuta qadrining barqarorligini ta'minlashda, import xarajatlarini moliyalashtirishda imkoniyat ta'minlab beradi. Qolaversa, eksport daromadlari import xarajatlaridan ortiq bo'lsa, mamlakat savdo balansi ijobiy ko'rsatkichlarni namoyon qiladi. Bunday natija milliy iqtisodiyotning mustaqilligining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda eksport raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, eksport bozori mahalliy ishlab chiqaruvchilarni mahsulotlar sifatini muntazam oshirishga, texnologik yangiliklarni izchil o'zlashtirishga, mavjud resurslardan samarali foydalanishga undaydi. Bu milliy ishlab chiqarishni jadal rivojlanishiga va jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotda eksport siyosatini shakllantirishda muhim omillar ta'sir ko'rsatadi va ular quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'zida mujassam qiladi. Ular eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibini va bozorlarini diversifikatsiya qilishni talab etadi. Chunki, eksportda sanoqli turdagi mahsulotlar va mamlakatlar mutlaq

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi to'g'risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-6600413>

yetakchilik salohiyatiga ega bo'lsa, tashqi savdo riskli vaziyatda bo'ladi. Shu bois eksport tarkibi va geografiyasini kengaytirish mamlakatlar uchun strategik vazifalardan hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish va eksportga xomashyo emas, balki, chuqur qayta ishlangan mahsulotlarni taklif qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ayni paytda, mamlakatda logistika va infratuzilmani rivojlantirish eksport samaradorligini oshiradi. Bu savdo bo'yicha tashqi va ichki infratuzilmalarni yaxshilashni talab etadi. Bundan tashqari, eksport salohiyatining milliy xavfsizlik va iqtisodiy mustaqillikka ham o'ziga xos ta'siri mavjud. Chunki, eksport faoliyati iqtisodiy mustaqillikni kuchaytiradi. Faqat, milliy eksport haddan tashqari alohida mamlakatga va mahsulotga qaram bo'lib qolmasligi kerak. Chunki, bunday vaziyat iqtisodiyotda risklarni keltirib chiqaradi, global inqirozlar va geosiyosiy o'zgarishlar davrida eksport hajmida keskin kamayishi milliy bozorga salbiy ta'sir qiladi. Shu bois milliy iqtisodiyotlar uchun barqaror eksport strategiyasi bu milliy iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Demak, eksportning milliy iqtisodiyotga ta'siri ko'p qirrali va chuqur tendensiyaga asoslangan amaliyot hisoblanadi. Chunki, u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, bandlik darajasini oshiradi, texnologik rivojlanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir davlat o'zining eksport salohiyatini har tomonlama mustahkamlashga va strategik yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Milliy eksport tendensiyasining asosiy xususiyatlar bo'yicha 2010–2014-yillarda nisbiy barqarorlik va pasayish kuzatilgan. Xususan eksport 2011-yilda 13,2 mlrd \$ bilan eng yuqori ko'rsatkichga erishgan bo'lsa, 2012–2014 yillarda esa pasayish kuzatilgan. Bu global iqtisodiy muammolar va xomashyo narxlarining o'zgarishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Lekin, eksport hajmida 2015–2016-yillarda keskin pasayish sodir bo'lgan va 2016-yilda eksport hajmi 8,9 mlrd \$ gacha tushgan.

Bu davrda neft-gaz, paxta narxlarining global miqyosda pasayishi, hamda eksport strategiyasidagi islohotlar bosqichma-bosqich boshlanishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Ayni paytda, 2017–2019-yillarda milliy eksportda tiklanish va o'sish davri bo'lib, 2017-yildan boshlab eksport hajmida asta-sekin o'sish tendensiyasi boshlagan va 2019-yilda eksport hajmi 14 mlrd \$ga yetib, yangi yuqori cho'qqini zabt etgan. Biroq, 2020–2021-yillarda Pandemiya ta'siri sezilgan va 2020-yilda 13,1 mlrd \$ bilan nisbatan pasayish yuz bergan.

Milliy tovarlar eksportining rivojlanish tendensiyasi², mln. AQSh \$da

Klassifikator	2010	2016	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami	11687,9	8974,0	10920,7	14023,8	13097,3	14081,1	15275,9	19229,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	637,9	817,6	881,3	836,5	820,9	1136,6	1307,7	1307,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1610,4	1712,6	2411,8	2752,9	2906,4	4332,9	4383,5	4051,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	699,8	208,9	204,1	421,8	434,4	693,6	973,7	1305,2
Turli xil tayyor buyumlar	153,6	245,8	337,6	435,7	617,3	780,4	1106,1	1195,6
Boshqa tovarlar	2624,4	2807,6	2939	4978,2	5813,1	4303,9	4132,3	8192,6
Xizmatlar	1335,5	3120,6	3070	3434,8	2005	2581,7	4456,7	5640,4
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1056,2	644,9	1029,9	1436,4	1336,2	1371,8	1631,5	1777,6
Ichimliklar va tamaki	44,5	17,8	22,3	29,8	27,1	36	111	123
Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg'idan tashqari	1733,5	788,5	427,5	591,2	456,1	509,5	393,6	321,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2907,8	1713,9	2666,8	2528,9	659	914,8	1215,2	940,6
Hayvonlar va usimliklar moylari (yoglari), yoglar va mumlar	1,4	0	0,1	12,4	26,8	1,5	21,2	14,2

² Stat.uz

Ammo, 2021-yilda eksport yana tiklanib 14,08 mlrd. \$ga yuksalgan bo'lsa, 2022–2023-yillarda eksport jadal o'sish bosqichiga kirgan. Masalan, eksport hajmi 2022-yilda 15,2 mlrd. \$, 2023-yilda esa rekord bo'lgan 19,2 mlrd \$ darajasiga chiqqan. Bu bosqichda eksport sohasida yangi mahsulotlar, yangi bozorlar hamda qo'shilgan qiymatli mahsulotlar hajmining ortgani sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Asosiy xulosa sifatida 2016-yilda 8,9 mlrd \$ bilan eng past eksport amalga oshirilgandan keyin mamlakat eksportida barqaror va jadal o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2023-yilda eksport hajmi 2010-yilga nisbatan 64% ga oshgan. Bu eksportdagi o'sish iqtisodiy islohotlar, yangi logistika yo'llari ochilishi va sanoatni modernizatsiya qilinishi hisobiga ta'minlanmoqda. Eksportning barqaror o'sishi milliy iqtisodiy mustahkamlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, xorijiy valyuta tushumlari va to'lov balansi barqarorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi to'g'risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmoni
- 2.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston, T.: 2017.
- 3.Vaxabov A.V. va boshqalar Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. Baktريا press, T.: 2015.
- 4.Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International economics: theory and policy. 12th edition. Harlow, Essex: Pearson, 2023, 817p.
- 5.Dominick S., International economics. Printed in the USA /. – 13th ed. 2019. 720 p.
- 6.Thomas A. Pugel. International Economics. Printed in the USA /. – 18th Edition. 2024.

7. Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya. – T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021. – 72 b.